# O‘QUV DASTUR PASPORTI

*O‘quv dastur uzluksiz tibbiy va farmatsevtik ta’lim muvofiqlashtiruvchi kengashning 14 avgust 2025 yildagi 3-sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan. IXT-134*

*Amal qilish muddati 2030 yil gacha*

| | |
|---|---|
| **Ta’lim muassasasi nomi** | Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi |
| **Kafedra/ bo‘lim** | Endokrinologiya |
| **O‘quv dastur nomi** | *“Endokrinologiya”* |
| **O‘qish turi** | Ixtisoslashtirish |
| **O‘quv dastur muallifi/ mualliflari** | Raximova G.N., Xaydarova R.T., Djurayeva A.SH., Axrorov K.U. |
| **Siklning umumiy soati** | 288 kredit |

**Siklda dars beradigan o‘qituvchi va trenerlar**

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
|  |  |  |  |  |  |
| t.f.d., professor Raximova G.N. | t.f.n, dotsent Xaydarova R.T. | t.f.n., dotsent Djurayeva A.SH. | assistent Axrorov K.U. | t.f.d., dotsent Narimova G.D. | t.f.d., dotsent Muratova Sh.T. |

| | |
|---|---|
| **Maqsad** | Shifoklarning professional kompetensiyalarinin takomillashtirish asosida endokrinologiyaning gipotalamo-gipofizar tizim kasalliklari, metabolik sindrom, qandli diabet, qalqonsimon bez kasalliklari, buyrak usti bezlari kasalliklari va jinsiy bezlarning kasalliklari kelib chiqish sababini va holatlarini erta aniqlash, mahoratini oshirish, samarali davolash, profilaktika tadbirlarinii amlaga oshirish bo‘yicha kasbiy bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish, o‘rgatish va shakllantirishdan iborat . |
| **Siklga taklif qilingan mutaxasisslar - kontingent** | Endokrinologlar, pediatr-endokrinologlar |
| **Sikl vazifalari** | - gipotalamo-gipofizar tizim kasalliklarining zamonaviy tashhis va standartlar bo‘yicha davolash usullarini o‘rganadilar, qiyosiy tashhis mezonlari, gipotalamo- gipofizar kasalliklarining o‘ziga xos kechishi bo‘yicha bilimlarni shakllantiradilar;<br>- qandli diabet tashhisini yangi klassifikatsiyalar asosida shakllantirishni, klinik protokollar asosida davolash bo‘yicha nazariy bilimlarini shakllantirish , kiritilgan o‘zgarishlarni amaliyotga tadbiq eta olishni va yangilangan, takomillashgan davolash usullarini qo‘llashni o‘zlashtiradilar va zamonaviy |

| | |
|---|---|
| | tibbiy yordamni ko‘rsata olish, standart ko‘nikmalarni takomillashtirishda bor bilimlarini chuqurlashtiradilar;<br>- qalqonsimon bez kasalliklari tashhisida yangi klassifikatsiyalarni qo‘llash, klinik protokollar asosida davolash bo‘yicha nazariy bilimlarini shakllantirish, zamonaviy va xalqaro tavsiyalar asosida yangilangan va takomillashtirilgan tashhislash va davolash usullarini amaliyotga tadbiq eta olishni va qo‘llashni o‘rganadilar;<br>- metabolik sindrom va semizlikning xalqaro va yangilangan tasnifi asosida tashhis va zamonaviy davolash usullarini amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha ko‘nikmalar shakllantiriladi va uning amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar;<br>- buyrak usti bezi, uning kasalliklari haqidagi bilimlar shakllantiriladi, xalqaro va yangilangan tasnifi asosida tashhis va zamonaviy davolash usullarini amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha ko‘nikmalar shakllantiriladi va uning amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar;<br>- jinsiy bezlarning jins va yoshga bog‘liq xosliklari haqidagi bilimlar shakllantiriladi, kasalliklarni tashhislash va qiyosiy tashhislash, zamonaviy va xalqaro standart va tavsiyalarga binoan davolash usullari bo‘yicha bilimlar va amaliyotga tadbiq etish |
| **Sikl tarkibi** | 1modul. O‘zbekistonda endokrinologik xizmatining rivojlanishi<br>2 modul. Gipotalamo- gipofizar tizim kasalliklarini tashhislash va davolashning zamonaviy asoslari<br>3 modul. Metabolik sindrom. Muammoga yangicha nigoh.<br>4 Modul. Tireoidologiya: bugun va ertaga<br>5 Modul. Diabetologiyaga endokrinologning yangicha nigohi<br>6. Modul. Buyrak usti bezi kasalliklarining muammolari<br>7 Modul. Reproduktiv endokrinologiyaning dolzarb masalalari |
| **O‘qish bazalari** | Akad. Yo. X. Turakulov nomidagi RIEIATM<br> |